



## NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI VA FUQAROLIK JAMIYATINING BOSHQA INSTITUTLARI TOMONIDAN JAMOATCHILIK EKSPERTIZASINI O'TKAZISHNING AYRIM MASALALARI

Burxonova Shiyryn Jamshitovna

Qoraqalpoq Davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7317744>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> November 2022

Accepted: 12<sup>th</sup> November 2022

Online: 14<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Jamoatchilik ekspertizasi, nodavlat notijorat tashkilot, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik muhokamasi, dastlabki o'qish

### ABSTRACT

*Maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan jamoatchilik ekspertizasini o'tkazishning ayrim masalalari yoritib berilgan. Ishda normativ-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazuvchi subyektlar sifatida davlat va nodavlat tashkilotlari ishtirok eta olishlari, bunda asosan norma ijodkorligi sohasida fuqarolik jamiyati institutlari faol ishtirok etishini ta'minlash, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ekspertizasi ilmiy-nazariy tahlil qilishga oid masalalar huquqiy jihatdan asoslantirilgan. Shuningdek, ilmiy ishlanmaning xulosa qismida normativ-huquqiy hujjat loyihasini kelishib olish va jamoatchilik muhokamasi bosqichlarida muammoni, uni hal etish usullarini aniq belgilab qo'yish amaliyotini yo'lga qo'yish zarurligi taklif sifatida ilgari suriladi.*

Jamoatchilik ekspertizasining asosiy maqsadlari, funksiyalari va uning zamonaviy O'zbekistonning demokratik institutlari tizimidagi o'rnini belgilashda eng avvalo, ushbu institutni samarali tashkil qilishning belgilab beruvchi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi belgilangan bo'lib, milliy qonunchilikda ushbu fundamental g'oyani mustahkamlash va amalda ta'minlashga qaratilgan bir qator institutlardan samarali foydalanib kelinmoqda. Ushbu institutlar sirasiga saylov, referendum, o'zini o'zi

boshqarish organlari, jamoat birlashmalariga birlashish huquqi va jamoatchilik nazoratida ishtirok etish, ijtimoiy sheriklik va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Eng muhimi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va



takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi", deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu norma konstitutsiyaviy darajada jamoatchilik nazoratini o'rnatishga oid fundamental qoida sanalib, avvalgi paragraflarda qayd etilganidek, normativ-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik ekspertizasini o'tkazish aynan jamoatchilik nazaoratining bir shakli sifatida qonunchilikda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida quyidagi vazifalar aniq belgingan edi:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik va kasbiy doirada muhokama qilish, shu jumladan, foyda, xarajat va kutilayotgan natijalar tahlilini hamda ularning jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlariga, ijtimoiy sohaga, tadbirkorlik faoliyatiga, atrof-muhit holatiga ta'sirini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni baholash imkonini yaratish;

fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik subyektlari va ilm-fan vakillarini jalb etish ishlarini samarali tashkil etish orqali norma ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik muhokamalarining ta'sir darajasini oshirish.

Mazkur konsepsiyada belgilangan vazifalarni barchasini o'tgan yillar davomida to'liq hayotimizda aks etdi deb aytib bo'lmaydi. Bejizga, Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: "Qonunlarni qabul qilishda jamoatchiligimiz, saylovchilarning keng ishtiroki sezilmayapti. Qonunlar qabul qilinishi bilan xalqimizning og'iri yengil bo'ldimi, uning hayotidagi muammolar hal bo'ldimi, degan savollar bilan, afsuski, hech kim qiziqmayapti. Shuning uchun ham

qonunlarni qabul qilish jarayonida yangi tizim — aholi bilan muhokama qilish tizimini joriy etish lozim, deb hisoblayman" [1].

Davlatimiz rahbarining ushbu g'oyalari ushbu sohada ham nazariy va ham amaliy tadqiqotlarni o'tkazishga bizni undaydi. Normativ-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazishda fuqarolik jamiyati institutlari, ularning tutgan muhim o'rni uzoq yillardan buyon ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama qilib kelinadigan muhim masala sanaladi.

Bejizga ilmiy adabiyotlarda, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi, ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi konstitutsiyaviy prinsiplarni va avvalambor demokratiya tamoyillarini amalga oshirishda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin [2], deya qayd etilmagan.

Norma ijodkorligi sohasida xalqaro tan olingan demokratiya prinsipi aynan ushbu jarayonga keng jamoatchilik, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa ishtirokchilarini jalb qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bunday jalb qilish, ommaviy axborot vositalarida qonunchilikni muhokama qilish, qonun loyihalari bo'yicha jamoatchilik fikri so'rovlarini o'tkazish va boshqalarda ham namoyon bo'ladi.

Bu borada bir qator olimlar ham o'z fikrlarini ilgari surishgan. Jumladan, O. A.Kolotkina qayd etishicha, ushbu jarayon normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va tasdiqlashning bepul tartibini, birinchi navbatda, qonun chiqarishda jamoatchilik fikri, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlari va aholining turli qatlamlarini qiziqishlarini o'rganish, ushbu jarayonda keng jamoatchilikning faol va



samarali ishtirokini o'rnatishda namoyon bo'ladi [3].

Professor M.Axmedshayeva huquqning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari haqida qayd etib o'tganidek, "Ilmiy manbalarda huquq rivojining yana boshqa qator tendensiyalar, jumladan, konstitutsiyaviy normalarning to'g'ridan-to'g'ri harakati, xalqaro huquq normalari ustunligi, inson huquqlari ustuvorligi, qiyosiy huquqning intensivlashuvi, davlatlar, xalqlar o'rtasida huquqiy aloqalarning rivojlanishi, davlatlararo va davlatlar ustidan turuvchi xalqaro tashkilotlar huquqlarining rivojlanishi, dunyo davlatlari huquqining unifikatsiyalashuvi, huquqning globallasuvi va standartlashuvi kabilar ilgari suriladi" [4].

Ushbu fikrlarga to'liq qo'shilgan holda aytish mumkin, zamonaviy davlatlarning huquqiy rivojlanish tendensiyalarida bugungi kunda inson huquqlari ustuvorligi, davlatlar, xalqlar o'rtasida huquqiy aloqalarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu aloqalarni o'rnatishda jamoatchilik nazoratini o'rni va unda nodavlat tashkilotlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, sifatli normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda ular yuzasidan aholining fikrini o'rganishni ahamiyati haqida Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari Kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur" [5].

Qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolarning bevosita ishtiroki ularga o'z huquq va manfaatlarini amalda ifoda etish imkonini berish bilan birga ulardan bu borada huquqiy faollikni ham talab qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining qonun

ijodkorligidagi ishtiroki bilan bog'liq qoidalar qonunchiligimizda o'z aksini topgan.

Jamoatchilik ekspertizasini fuqarolarning davlat ishlarida jamoatchilik muhokamasi orqali ishtirok etish shakli sifatida qarash mumkin. Jamoatchilik ekspertisasi muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun sohani tartibga solishga qaratilgan qonunchilik asosining yetarli shakllanganligi va jarayonni tashkil etishga yetarli moddiy resurslarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida jamoatchilik ekspertisasi tashkil etishning huquqiy asoslari nazarda tutilgan. Jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik ekspertizasini o'tkazishga bo'lgan huquqi O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida: "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini o'tkazishda, ishlab chiquvchilar bilan kelishuvga ko'ra, ularning jamoatchilik muhokamasini o'tkazish tashabbusi bilan chiqishda ishtirok etishga, loyihalar yuzasidan takliflarni ishlab chiqishga, ularni to'plashni va umumlashtirishni amalga oshirishga, shuningdek ushbu takliflarni ko'rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritishga" haqli ekanligi belgilangan.

X.Xayitov normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertiza qilish masalalarida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishni taklif qiladi:

Birinchidan, norma ijodkorligi sohasida fuqarolik jamiyati institutlari faol ishtirok etishini ta'minlash zarur. Shu munosabat bilan bu boradagi ishlarning ochiqligini ta'minlash, jamoatchilikni norma



ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyatidan har tomonlama xabardor qilib borish zarur; Ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ekspertizasi ilmiy-nazariy masalalarini tahlil etib, unda huquqiy ekspertiza tushunchasi, mohiyati, turlari, shuningdek uni o'tkazuvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish masalalarini tizimli o'rganishni taklif qiladi [6].

Normativ-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik ekspertizasini o'tkazishda aholini turli qatlamlarini jalb qilish shakllari va usullari ham muhim ahamiyatga ega.

MDH davlatlari tadqiqotchilari orasida ilk bor ushbu sohani tadqiq qilgan V. I. Zaxarova jamoatchilik ekspertizasi tushunchasiga ta'rif berar ekan, uni "ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni (qonunlar, loyihalar, dasturlar, qarorlar va h.k) ekspertizada o'tkazish jarayoniga aholi (jamiyat)ni ixtiyoriy jalb qilish" deb ta'riflaydi [7].

V. I. Chervonyukom tomonidan berilgan quyidagi ta'rif alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchi normativ-huquqiy hujjatlarning ijtimoiy ekspertizasi deganda – normativ-huquqiy hujjatlar loyihasining ijtimoiy yo'nalishini, foydaliligini (zarurligini), uning mazmuni va loyiha me'yorlarini aniqlash, uning ijtimoiy muammolarni qonun doirasida hal qilish qobiliyatini baholashga qaratilgan faoliyatdir [8].

Ushbu ta'rif ekspertizaning quyidagi asosiy maqsadlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi: a) bo'lajak huquqiy hujjatning ijtimoiy yo'nalishini aniqlash; b) uning me'yoriy tarkibining foydaliligini aniqlash; v) kelajakdagi qonunning ijtimoiy muammolarni hal qilish qobiliyatini baholash.

Umuman olganda jamoat birlashmalari va keng fuqarolar orasida normativ-huquqiy hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida quyidagi asosiy fundamental prinsiplar amalga oshirilishi zarur:

- inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish;
- qonuniylik;
- jamoat ekspertizasi o'tkazilishining oshkorligi va natijalarining ochiqligi;
- jamoat ekspertizasini amalga oshirishning ixtiyoriyligi;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslarining jamoat ekspertizasini o'tkazishga aralashmasligi;
- mutaxassislarning mustaqilligi;
- ekspert xulosalarining xolisligi va ishonchliligi.

Biroq, jamoat ekspertizasi shaklidagi jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini davlatga ko'rsatadigan ta'siriy usullaridan biridir [9]. Ushbu ta'sir usullari rasmiy emas, balki sifatli bo'lishi uchun jamoat ekspertizasini o'tkazishni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur.

Yana bir muhim masala, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuniga xalqaro amaliyotda keng tarqalgan jamoatchilik nazoratining ta'sirchan shakllarini joriy etish va jamoatchilik nazorati shakllarini, ayniqsa jamoatchilik ekspertizasini amalga oshirish mexanizmlarini batafsil reglamentatsiya qilish, ularni amaliyotda samarali qo'llash bo'yicha qonun hujjatlariga o'zgartish kiritish zarur.

Bizningcha, normativ-huquqiy hujjat loyihasini kelishib olish va jamoatchilik muhokamasi bosqichlarida muammoni, uni hal etish usullarini, shu jumladan fuqarolar



va tadbirkorlik subyektlari uchun foyda va xarajatlarni tahlil etishni nazarda tutuvchi tartibga solish ta'sirini baholashga oid tahliliy hujjatlar bilan majburiy ta'minlash va jamoatchilikka e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur.

Qonun ijodkorligi sohasida qonun loyihalari matnlarini va ularga doir tahliliy materiallarni har bir o'qishdan keyin parlamentning veb-resurslarida va OAV orqali tezkor e'lon qilib borish, real vaqt rejimida fuqarolar tomonidan qonun

loyihalari bo'yicha takliflar hamda mulohazalarni yo'llash imkoniyatini joriy etish zarur.

Xalqaro tajriba asosida jamoatchilik tomonidan qabul qilingan qonunlarning qabul qilinish jarayoni va undagi bahs-munozaralar, amaliyotda huquqni qo'llash sohasidagi nizolarni hal qilish uchun qonun loyahasining konseptual jihatlarini bilish maqsadida muhokamalar stenogrammasini parlament saytlariga osish amaliyotini joriy qilish taklif qilinadi.

## References:

1. <https://uza.uz/uz/posts/parlamentimiz-a-i-iy-demokratiya-maktabiga-aylanishi-islo-ot-12-07-2017>
2. Greppi A. Practical authority and epistemic authority: comity, expertise and public understanding //Jurisprudence. – 2020. – T. 11. – №. 3. – S. 437-455.; Cormacain R. Legislation, legislative drafting and the rule of law //The Theory and Practice of Legislation. – 2017. – T. 5. – №. 2. – S. 115-135.
3. Kolotkina O. A. Institut obshchestvennoy ekspertizy proektov normativnykh pravovyx aktov v strukture grajdanskogo obshchestva //Grajdanskoe obshchestvo v Rossii i za rubejom. – 2018. – S. 15.
4. Belokon N. V. Ekspertiza kak faktor povыsheniya demokratizatsii zakonodatelnogo protsessa //Yuridicheskaya texnika. – 2014. – №. 8.
5. Akhmedshaeva, M (2018) "Some theoretical-legal and organizational questions of forecasting of lawmaking process," ProAcademy: Vol. 1 : Iss. 1 , Article 24. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/proacademy/vol1/iss1/24>
6. D.Xolmonova. Qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ekspertizasining o'rni va ahamiyati. // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. 2015 y. №2. – B. 13-15.
7. D.Xolmonova. Qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ekspertizasining o'rni va ahamiyati. // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. 2015 y. №2. – B. 13-15.
8. D.Xolmonova. Qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ekspertizasining o'rni va ahamiyati. // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. 2015 y. №2. – B. 13-15.
9. Elementarnye nachala obshchey teorii prava : uchebnoe posobie dlya vuzov / pod obsh. red. d-ra yurid. nauk, prof. V. I. Chervonyuka. – M., 2003. – S. 248